

TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI TRANSFORMATSIYA QILISH ISTIQBOLLARI

Xushmuradov Oman

*Qarshi davlat texnika universiteti, “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida dotsenti,
i.f.n.*

o.xushmuradov@gmail.com

Annotatsiya: maqolada tijorat banklarini transformatsiya qilishning zarurligi, maqsadi, yo‘nalishlari va kelgusi istiqbollari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, mahalliy va xorijiy olimlar tadqiqotlari o‘rganilgan. Sohaga oid huquqiy hujjarlar tahlili amalga oshirilgan. Transformatsiya jarayonlarining O‘zbekiston Respublikasidagi amalda holatlari tadqiq etilgan va xulosa hamda takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: bank, transformatsiya, raqamli, tijorat banki, texnologiya, moliya, kiberxavfsizlik, jinoyat, xizmat, boshqaruv.

ПЕРСПЕКТИВЫ ТРАНСФОРМАЦИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ

Хушмурадов Оман

*Каршинский государственный технический университет, Кандидат
экономических наук, доцент кафедры “Бухгалтерский учёт и аудит”*

o.xushmuradov@gmail.com

Аннотация: в статье рассматриваются необходимость, цели, направления и перспективы трансформации коммерческих банков. Также изучены исследования отечественных и зарубежных ученых. Проведен анализ нормативно-правовых документов по данной сфере. Были изучены реальные случаи трансформационных процессов в Республике Узбекистан и разработаны выводы и предложения.

Ключевые слова: банк, трансформация, цифровой, коммерческий банк, технология, финансы, кибербезопасность, преступность, услуга, управление.

PROSPECTS FOR THE TRANSFORMATION OF COMMERCIAL BANK ACTIVITIES

Xushmuradov Oman

Karshi state technical university, PhD in economics, associate professor of the department of “Accounting and audit”

o.xushmuradov@gmail.com

Abstract: the article discusses the need, goals, directions and prospects for the transformation of commercial banks. It also examines the research of domestic and foreign scientists. An analysis of regulatory documents in this area is conducted. Real cases of transformation processes in the Republic of Uzbekistan were studied and conclusions and proposals were developed.

Keywords: *bank, transformation, digital, commercial bank, technology, finance, cybersecurity, crime, service, management.*

KIRISH

Tijorat banklari faoliyatini transformatsiya qilish bugungi kunning eng muhim masalalaridan biri bo‘lib, bu jarayon moliyaviy tizimlarning barqarorligi, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi va mijozlarga yuqori darajadagi moliyaviy xizmatlarni ko‘rsatishga imkon yaratadi. Global raqobatning kuchayishi, texnologiyalarning tezkor rivojlanishi va mijozlarning bank xizmatlaridan foydalanish jarayonidagi kutishlardagi o‘zgarishlar tufayli banklar an’anaviy faoliyat modellarini qayta ko‘rib chiqishlari zarur bo‘lib qoldi.

Banklar faoliyatini transformatsiya qilish jarayoni, avvalambor, texnologik va operatsiyaviy o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi. Tijorat banklari an’anaviy xizmatlardan tashqari, yangi raqamli xizmatlar, sun’iy intellekt va blokcheyn texnologiyalarini joriy etish orqali faoliyat yuritish shakllarini o‘zgartirmoqda.

Tijorat banklari transformatsiyasi bu – banklarning zamonaviy texnologiyalar va raqamlashtirish vositalari yordamida xizmat ko‘rsatish usullari, tashkiliy tuzilmalari va ichki jarayonlarini qayta shakllantirish jarayonidir. Bu jarayon asosan raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi va mijozlarning o‘zgarib borayotgan talablari tufayli yuzaga kelmoqda.

Raqamli transformatsiyaning ko‘plab afzalliklari mavjud bo‘lsa-da, u texnologiyalarga katta investitsiyalar zarurati va kiberxavfsizlik tahdidlari kabi qiyinchiliklarni ham keltirib chiqaradi. Jumladan, banklar moliyaviy jinoyatlarga qarshi kurashish, kiberxavfsizlik va ma’lumotlar maxfiylikini himoya qilish uchun transformatsiya qilinishi lozimligi tadqiqot mavzuumizning dolzarbligini asoslaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tijorat banklari faoliyatini transformatsiya qilish va ularni turli modellar asosida baholash masalalari L.Weill [1], Jacob A Bikker, Laura Spierdijk [2] tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. O‘zbekistonda tijorat banklari raqobatbardoshligini oshirish, tizimda

raqamlashuv jarayonlarini faollashtirish va banklar bozorida raqobatni baholashning ayrim xususiyatlari xususida F.I.Mirzayev [3], O.Sattorov [4] va O.A.Ortiqov [5] va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

An'anaviy bankning yuqori texnologiyali raqamli mijozlarga yo'naltirilgan transformatsiyasini Fintech loyihalarini mustaqil kuchli raqobatbardosh taklifga aylantirish, yetarli moliyaviy resurslar va to'g'ri tanlangan fintech neobank modelini ishlab chiqish orqali erishiladi [6].

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti Sh.K.Kamalovga ko'ra, O'zbekiston banklarining raqamli transformatsiyasining strategik o'ziga xosligi ko'p jihatdan mahalliy venchur investitsiya sanoatini qurishning institutsional xususiyatlari bilan belgilanadi, bu esa fintech startaplarini moliyalashtirish imkoniyatlarini ma'lum darajada cheklaydi. Natijada fintech bozori potentsialini zaiflashtiradi va raqobatbardosh fintech startaplarini o'zlashtirish imkoniyatini kamaytiradi [7].

Tadqiqotchi Yu.O.Shamsiyevava fikricha, banklarning raqamli transformatsiya qilinishi natijasida zamonaviy bank xizmatlari va yangi to'lov usullarining paydo bo'lishi va mijozlarning bank bilan boshqacha muloqot usullari yuzaga kelishi ayniqsa bank va mijoz o'rtasidagi aloqalarni yanada tezlashtiradi [8].

Tijorat banklarining raqamli transformatsiyasini kraudsorsing, raqamli bank, elektron to'lov tizimlari, onlayn tezkor kreditlash va masofaviy identifikatsiya texnologiyalari orqali amalga oshirish hozirda muhim yo'nalishlar hisoblanadi [9].

METODOLOGIYA

Tijorat banklari faoliyatini transformatsiya qilish jarayonlarini chuqur o'rganish, mavjud makro va mikroiqtisodiy tendensiyalarni tahlil qilish, shuningdek, sohaga oid kelgusidagi istiqbollarni aniqlash maqsadida ushbu tadqiqotda mavzuga doir xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan yaratilgan ilmiy adabiyotlar, ilmiy maqolalar va tahliliy materiallar puxta o'rganildi. Tadqiqot metodologiyasi doirasida axborot va statistik ma'lumotlar ustida kuzatish, jamlash, guruhlash, jadval va grafiklar orqali vizuallashtirish usullaridan samarali foydalanildi. Shuningdek, transformatsion jarayonlarning nazariy asoslarini aniqlash uchun nazariy tahlil, tijorat banklari faoliyatining amaldagi ko'rsatkichlarini o'rganish uchun amaliy tahlil, ularning o'zgarish dinamikasini ifodalashda esa grafik tahlil metodlari qo'llanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tijorat banklari faoliyatini transformatsiya qilish ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, har bir bosqich banklarning mijozlarga xizmat ko'rsatish, moliyaviy vositachilik va iqtisodiy barqarorlikka qaratilgan strategiyalariga sezilarli o'zgarishlar olib keldi. Ushbu transformatsiya jarayoni sanoat inqilobi, texnologik rivojlanish, raqamli iqtisodiyotga o'tish va moliyaviy texnologiyalarning rivojlanishi kabi omillar bilan chambarchas bog'liqdir.

XXI asrda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bank tizimini tubdan o'zgartirdi. Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (big data), blokcheyn va bulutli hisoblash texnologiyalari bank faoliyatini avtomatlashtirish va samaradorlikni oshirish uchun keng qo'llanila boshlandi. Masalan, raqamli bank xizmatlari, masofaviy bank amaliyotlari va mobil ilovalar mijozlarga 24/7 xizmat ko'rsatishni ta'minladi. Moluyaviy kompaniyalar va banklar o'rtasidagi raqobat banklarning an'anaviy operatsiyalarini o'zgartirishga majbur qildi. Bu esa banklarning innovatsiyalarni tezroq qabul qilishini talab etdi va mijozlarga xizmat ko'rsatish jarayonini soddalashtirishga olib keldi.

Empirik tadqiqotlar raqamli transformatsiya banklarning operatsion samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi, bunda yirik muassasalar bu jarayondan yanada ko'proq foyda ko'radi. Raqamlashtirish darajasi raqobatbardoshlik va xizmat sifatini oshirish bilan bog'liq bo'lib, bu bozor talablariga moslashish uchun nihoyatda muhimdir.

Transformatsiya jarayonida banklar an'anaviy xizmatlardan voz kechib, raqamli xizmatlarni, masalan, mobil va internet-banking, sun'iy intellekt yordamidagi avtomatlashtirilgan xizmatlar, robotlar va blokcheyn texnologiyalarini joriy qilmoqda. Shu bilan birga, transformatsiya biznes jarayonlarini tezlashtirish, xarajatlarni kamaytirish va mijozlarga qulay hamda samarali xizmat ko'rsatishni o'z ichiga oladi. Shu sababli, tijorat banklari transformatsiyasi bankning raqobatbardoshligini oshirishga, yangi moliyaviy texnologiyalar orqali mijozlarning ehtiyojlarini tezkor qondirishga va bankning daromad manbalarini diversifikatsiya qilishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasida ham "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi farmonda transformatsiya so'zi 43 ta holatda uchrab, ularning barchasi tijorat banklarini transformatsiya qilishga oid va unda tijorat banklari faoliyatini transformatsiya qilish bo'yicha ko'rsatmalar keltirilgan. Jumladan, farmonning "Bank sektorida ulushini kamaytirish" deb nomlangan bo'limida davlat ulushiga ega bo'lgan banklarni transformatsiya qilish jarayoni hamda yo'nalishlari ko'rsatilgan (1-jadval).

1-jadval

Korporativ transformatsiya jarayoni [10]


T/r	Ustuvor yo'nalishlar	Amalga oshirish yo'nalishlari
1	Korporativ boshqaruvni takomillashtirish	- bank kuzatuv kengashlariga bank sohasida xalqaro tajribaga ega bo'lgan mustaqil a'zolari kiritgan holda, ularning tarkibini yangilash, tijorat banklari boshqaruv organlari o'rtasida vakolat va majburiyatlarni aniq taqsimlash; - samarali nazorat uchun kuzatuv kengashlari huzurida maxsus qo'mitalarni tashkil etish;

		<ul style="list-style-type: none"> - zamonaviy xalqaro tajriba asosida bank boshqaruvining tashkiliy tuzilmasini qayta ko‘rib chiqish, ijro organlari faoliyati sifatini baholash uchun “samaradorlikning eng muhim ko‘rsatkichlari”ni belgilash amaliyotini joriy qilish; - moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga o‘tish, minoritar aksiyadorlar, mijozlar va boshqa manfaatdor tomonlarga ma’lumotlarning yetarli darajada oshkor etilishini ta’minlash.
2	Bank xizmatlari sifatini oshirish va ko‘lamini kengaytirish	<ul style="list-style-type: none"> - biznes jarayonlarni maqbullashtirish va boshqaruv sifatining xalqaro standartlarini joriy qilish; - tavakkalchiliklarni boshqarish tizimini takomillashtirish orqali kreditlar ajratish jarayonlarini soddalashtirish; - mijozlarga keng ko‘lamli xizmatlarni (moliyaviy maslahat, investitsion banking, faktoring, loyihaviy moliyalashtirish, lizing va boshqalar) taklif etish.
3	Zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish	<ul style="list-style-type: none"> - masofaviy bank xizmatlari, shu jumladan kontaktsiz to‘lovlar soni va qamrovini kengaytirish; - avtomatlashtirilgan skoring tizimi, raqamli identifikatsiyalash va kredit konveyeridan keng foydalanish; - bank ma’lumotlari va tizimlarining axborot xavfsizligini kuchaytirish; - bank sohasidagi yangi konsepsiya va texnologiyalarni joriy qilish (fintex, marketpleys, raqamli bank).
4	Kadrlar salohiyatini oshirish	<ul style="list-style-type: none"> - kadrlarni boshqarishning korporativ strategiyasini takomillashtirish; - bank kadrlarini uzluksiz o‘qitish tizimini joriy qilish; - har bir xodimning faoliyati natijalarini baholash asosida mehnatga haq to‘lashning zamonaviy tizimlariga o‘tish (KPI, bonus).

Korporativ transformatsiya jarayoni — banklarning samaradorligini oshirish, raqobatbardoshligini kuchaytirish va zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda faoliyatini

yangilashga yordam beradi. Korporativ transformatsiya ko‘pincha strategik boshqaruvni takomillashtirish, biznes jarayonlarni transformatsiya qilish, tashkiliy tuzilmani modernizatsiya qilish, korporativ madaniyatni rivojlantirish va kiberxavfsizlikni ta‘minlash kabi yo‘nalishlarda olib boriladi.

O‘zbekiston Respublikasida 2023-yilda masofaviy biometrik identifikatsiya qilish tizimi (Face ID) texnologiyasidan foydalanadigan tijorat banklari soni 26 tadan 30 tagacha ko‘paygan. Bu raqamli transformatsiya jarayonidagi ijobiy o‘zgarishlardan biridir.



1-rasm. Masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni [11]

Tijorat banklarida transformatsiya jarayonlari yo‘nalishlaridan biri masofaviy bank xizmatlari hisoblanadi. Tahlillarga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, 2023-yilda 2022-yilga nisbatan mamlakatimizda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchi jismoniy shaxslar soni 48,2 foizga, yuridik shaxslar va YATTLar esa, 15,7 foizga oshgan. Demak, bu yo‘nalishda sezilarli islohotlar amalga oshirilgan degan xulosa qilishimiz mumkin.

Tijorat banklarini raqamli transformatsiya qilish xizmat ko‘rsatish va operatsion samaradorlikni oshirish uchun yangi texnologiyalarni joriy etishni nazarda tutadi. Ushbu transformatsiya xavf qabul qilish bilan bog‘liq xatti-harakatlarga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi va muayyan sharoitlarda xavflarni kamaytirishi mumkin. Ushbu muammolarni samarali hal qilish uchun strategik tahlil talab etiladi [12].

Raqamli transformatsiyaning muhim elementi mijozlarning ehtiyojlarini chuqurroq tushunish va ularga javob berishdir. Shu orqali banklar mijozlar bilan o‘zaro aloqalarni yaxshilaydi, mijozlar qoniqishini oshiradi va ularning kelajakdagi ehtiyojlarini bashoratlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Raqamli texnologiyalar banklar operatsiyalarini avtomatlashtirish va tezlashtirishga yordam beradi. Bu bankning ichki

jarayonlarini optimallashtirish, chiqimlarni kamaytirish va xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga yordam beradi.

Bizningcha tijorat banklarini transformatsiya qilish quyidagi bosqichlardan iborat bo'lishi lozim:

- transformatsiya maqsadlarini belgilash;
- strategik boshqaruvni rivojlantirish va maqsadlarni moslashtirish;
- sun'iy intellekt va mobil bank kabi raqamli texnologiyalarni joriy etish;
- xarajatlarni kamaytirish va operatsion samaradorlikni oshirish;
- ma'lumotlarni himoya qilish va xavfsizlik choralari kuchaytirish.

Sun'iy intellekt va blokcheyn kabi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali banklar ma'lumotlarni tezkor qayta ishlash, xavflarni aniqlash va operatsiyalar xavfsizligini ta'minlashga erishmoqda.

Banklar raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali o'zining operatsion xarajatlarini kamaytiradi, bu esa daromadlarni oshirishga olib keladi. Transformatsiya orqali bank xizmatlari keng aholi qatlamiga, xususan, an'anaviy bank xizmatlaridan foydalana olmaydigan kishilarga yetkaziladi. Tijorat banklari moliyaviy kompaniyalar va markazlashgan moliyaviy tizimlar bilan raqobatlashish uchun transformatsiya jarayonlariga ehtiyoj sezadilar. Transformatsiya ularga yangi moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni taklif qilish imkoniyatini beradi.

Hozirgi kunning moliyaviy bozori raqobatbardosh va tez o'zgaruvchan bo'lib, tijorat banklari transformatsiya jarayonlariga kechiktirmasdan kirishishlari zarur. Zamonaviy mijozlar tezkorlik, qulaylik va shaxsga yo'naltirilgan moliyaviy xizmatlarni talab qiladilar, bu esa banklarni raqamli yo'nalishdagi o'zgarishlarga yetaklaydi.

Raqamli transformatsiyaning keng ko'lamda joriy etilishi, banklar faoliyatida yangi darajalarga yetishishga va moliyaviy xizmatlar sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Banklar transformatsiya jarayonida uchraydigan qiyinchiliklar, xususan, kiberxavfsizlik va texnologiyalarning narxi, banklarni yanada mustahkamroq strategiyalar ishlab chiqishga chorlaydi. Transformatsiya orqali tijorat banklari zamonaviy bozor talablariga mos keladigan moliyaviy xizmatlarni taqdim etish bilan birga, kelajakdagi rivojlanish uchun mustahkam zamin yaratadilar.

XULOSA

Transformatsiya jarayoni moliyaviy resurslarni samarali boshqarish, tavakkalchiliklarni kamaytirish va xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, transformatsiya jarayoni tizimda o'ziga xos murakkabliklarni yuzaga keltiradi. Banklar raqamli texnologiyalar va moliyaviy kompaniyalar bilan integratsiyani ta'minlash uchun sezilarli darajada sarmoya talab qiladigan infratuzilmalarni yaratishlari kerak. Bunda kiberxavfsizlikka e'tiborni kuchaytirish zarur, chunki

raqamli xavfsizlik banklarning ishonchliligi va barqarorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Transformatsiya jarayonini to'g'ri boshqarish orqali banklar nafaqat o'z faoliyat samaradorligini oshiradi, balki mijozlarning ishonchini ham mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Weill L. 2003: Banking efficiency in transition economies, the role of foreign ownership. *Economics of transition* 11(3): 569-592.
2. Jacob A Bikker, Laura Spierdijk 2017: Handbook of competition In banking and finance. 424 p.
3. Mirzayev F.I. O'zbekistonda banklararo raqobatni shakllantirishning kontseptual asoslari. Iqtisod fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. –T.: O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi, 2009. - 41 b.
4. Sattorov O. Tijotar banklari faoliyati tahlili. O'quv qo'llanma. –T.: "Iqtisod-moliya", 2013. - 192 b.
5. Ortiqov A.O. Banklararo raqobat sharoitida bank xizmatlari va ularni takomillashtirish yo'llari. Iqtisod fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. –T.: 2009. - 19 b.
6. Cumming, Douglas & Schwienbacher, Armin. (2016). Fintech Venture Capital. *SSRN Electronic Journal*. 10.2139/ssrn.2784797.
7. Kamalov Sh.K. Moliyaviy xizmatlar sektorini raqamli transformatsiyalash sharoitida moliyaviy texnologiyadan foydalanish masalalari. *Scientific Journal of "International Finance & Accounting"* Issue 3, June 2023. ISSN: 2181-1016. P. 1-14.
8. Shamsiyeva Yulduz Olimovna (2024). Bank sektoridagi raqamli transformatsiyani takomillashtirish. *Science and innovation*, 3 (Special Issue 18), 497-500. doi: 10.5281/zenodo.10804843.
9. Алиев. У.М. Международный опыт и преимущества применения цифровых технологии в секторе банковских услуг. Т.: – С. 1-9. <https://reu.uz/>.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.05.2020 yildagi "2020 — 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-son farmoni,
11. <https://cbu.uz/oz/payment-systems/remote-banking-services/>.
12. Allen, Huang., Da-wei, Tan. (2024). 1. An Overview of the Impact of Digital Transformation on the Risk-taking of Commercial Banks. *Journal of Risk Analysis and Crisis Response*, doi: 10.54560/jracr.v14i2.478.